

**O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA  
XOS JIHATLARI**

*Jiyanov Uktam Panjiyevich*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, katta o‘qituvchi*

*E-mail: [uktam.jiyanov87@gmail.com](mailto:uktam.jiyanov87@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Maqola O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan. Xususan, unda O‘zbekistonning turizm salohiyati, ziyorat turizmi imkoniyatlari, amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar haqida so‘z yuritilgan. Ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm sohasi, turizm salohiyati, ziyorat turizmi, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Global Muslim Travel Index, Mastercard-Crescentrating agentligi, YuNESKO.*

***Abstract:** The article is devoted to the problems of development of pilgrimage tourism in Uzbekistan. In particular, it talks about the tourism potential of Uzbekistan, possibilities of pilgrimage tourism, ongoing work, existing problems. Proposals and recommendations for the development of pilgrimage tourism are given.*

***Key words:** tourism sector, tourism potential, pilgrimage tourism, Organization of Islamic Cooperation, Global Muslim Travel Index, Mastercard-Crescentrating Agency, UNESCO.*

Yangilanayotgan O‘zbekistonda mamlakatimizni yanada rivojlantirish, xalqimiz farovonligini ta‘minlash, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashdan iboratdir. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini

ta'minlashda esa drayver sohalardan biri bo'lgan turizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz ziyorat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Xususan, yurtimizda yashab ijod qilgan, islom olamida mashhur ko'plab ulamolar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar, shuningdek, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar mavjud. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qur'oni karim namunalaridan biri – Xalifa Usmon Qur'on kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Muhammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbalari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar mavjud. Bundan tashqari, O'zbekiston sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyoning 10 ta yetakchi mamlakatlari qatorida turadi. Xususan, Respublikada turistlarni o'ziga jalb qiladigan 7,4 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning 209 tasi YuNESKO tashkiloti ro'yxatidan o'rin egallaganligi mamlakatimiz turistik salohiyatining yuqoriligini bildiradi<sup>12</sup>. Mavjud resurs salohiyat ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlarni O'zbekistonga jalb qilish uchun katta imkoniyat hisoblanadi.

Bugun ziyorat turizmi bozori borgan sari kengayib bormoqda. Mastercard-Crescentrating agentligining "Global Muslim Travel Index 2022" reytingi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosida taxminan 2 milliard musulmon aholi mavjud bo'lib, bu dunyo aholisining 25 foizidan oshig'ini tashkil etadi. 2019-yilda xalqaro musulmon sayyohlar soni 160 million kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilda 230 million kishiga yetishi ta'kidlanmoqda. Ulardan keladigan tushum esa 2019-yilda 190 milliard AQSH dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2028-yilda 225 milliarddan oshishi prognoz qilinmoqda<sup>13</sup>. Shuningdek, musulmon sayyohlar boshqa diniy konfessiyalarga mansub sayyohlarga qaraganda eng yoshi hisoblanadi, ya'ni ularning yoshi o'rtacha 25 yoshni tashkil etadi. Bunday

<sup>12</sup> 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли Фармониغا илова.

<sup>13</sup> MASTERCARD-CRESCENTRATING GLOBAL MUSLIM TRAVEL INDEX 2022. URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html>

kengayib borayotgan sig'im va yosh tarkibi ziyorat turizmi segmentining o'sib borayotgan bozoridan darak beradi.

Musulmon sayyohlarning alohida xususiyati shundan iboratki, ular bo'lajak sayohat, ziyorat joylarini yaxshi bilganliklari, ya'ni yetarli darajada musulmon ahli uchun zarur bo'lgan masjid, toat-ibodat uchun yaratilgan sharoit, halol taomlar mavjudligiga ishonch hosil qilgandagina safarga chiqadilar. Shunday ekan, mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun din bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar, o'ziga xos diniy qadriyatlar va an'analarning mavjudligining o'zi yetarli emas. Oldinda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bog'liq mavjud kamchiliklarga mehmonxonalarning yetishmasligi, arzon va qulay infratuzilmaning to'liq mavjud emasligi, erkin axborot olish, internet tezligi va undan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, turmahsulotlarning sifati pastligi va jozibador emasligi tufayli sayyohlarni o'ziga yetarli darajada jalb qila olmayotganligi va boshqalarni kiritish mumkin. Turistlarni jalb etish uchun qulay turistik infratuzilmani shakllantirish, yaxshi reklama, jozibadorlikni namoyish etuvchi tashviqot ishlarini olib borish, viza rejimini yanada erkinlashtirish kerak bo'ladi.

Turistlarni jalb etishning eng asosiy omillaridan biri bu tarixiy obidalarni asli holicha saqlashdir. Yevropalik sayyohlar ham, musulmon davlatlari turistlari ham zamonaviy osmono'par binolarga to'la mamlakatlardan kelishadi. O'zbekistonning o'ziga xos jihati tarixiy obidalar o'zining go'zal, qadimiy ko'rinishini saqlab qolganligidir. Tarixiy obidalarga limmo-lim bo'lgan qadimiy shaharlarimizda obidalaridagi yozuvlar katta ma'no-mazmunga egadir. Bu binolarning uzoq o'tmishga ega ekanligi, qanday qurulish uslublarida bunyod etilganligi hamda obidalaridagi naqshlarning uslublari va bu naqshlar orqali qanday ma'no-mazmun yashiringanligi haqida chet tillaridagi tarjima bukletlarini tayyorlash sayyohlarni yanada ko'proq qiziqish bilan O'zbekistonga jalb qilishga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonning turizm yo'nalishidagi jozibasini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu chora-

tadbirlar qisqa muddatda o'z samarasini ko'rsatdi. Xususan, viza rejimidagi o'zgarishlar, ortiqcha to'siqlarni bartaraf etilishi, O'zbekistonda bo'lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibining soddalashtirilishi, sohaning investitsiya jozibadorligini oshirilishi, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qilish choralarning ko'rilishi Covid-19 pandemiyasidan oldingi davrda, ya'ni 2019-yilda mamlakatimizga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini 6,7 mln.ga, turizm xizmatlari eksportidan tushadigan daromadlar hajmini 1,3 mlrd. AQSH dollariga, turizmning mamlakat YaIMidagi ulushini 2,3% ga, sohaning eksportdagi hissasini 7,3% gacha o'zgarishiga sabab bo'ldi<sup>14</sup>.

Mamlakatimizda ziyorat turizmida hal qilinishi zarur bo'lgan birinchi navbatdagi muammolar yechildi, deb bemalol ayta olamiz. 2021-yilda O'zbekistonning xalqaro ziyorat turizmi reytingi "Global Muslim Travel Index" dagi mavqei 7 ta punktga ko'tarilib, mamlakatimiz 9-o'rinni egalladi. Shuningdek, turizm xavsizligi darajasi va bag'rikenglik ko'rsatkichi bo'yicha Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlari o'rtasida birinchi o'ntalikka kirdi.

Sohani kordinatsiya qiluvchi tashkilot – O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan "Crescent Rating" tashkilotining mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha bergan taklif va tavsiyalari asosida infratuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, xalqaro aeroportlar va mehmonxonalarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoit yaratildi, masjidlar yaqinidagi yo'llarga yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi. Ziyorat turizmi sohasidagi yana bir muhim voqea 2019-yildan boshlab yurtimizda "Halol standarti" amaliyotga joriy etilishi bo'ldi<sup>15</sup>. Shuningdek, 2019-yilda O'zbekiston ushbu reytingda yuqori pog'onalariga ko'tarilib, 140 mamlakat orasida 22-o'rinni egalladi<sup>16</sup>.

Bundan tashqari, "Ramazonni O'zbekistonda nishonlashning 7 sababi" nomli reklama kampaniyasi tashkil etilishi hamda respublika bo'ylab masjidlar

<sup>14</sup> <https://review.uz/oz/post/turizm-soasini-rivojlantiris-bujica-2019-jilda-amalga-osirilgan-islar>

<sup>15</sup> <http://uza.uz/oz/tourism/zbekistonda-ziyerat-turizmi-2018-yilga-nazar-27-12-2018>

<sup>16</sup> <https://www.halaltrip.com/other/blog/uzbekistan-prayer-rooms/>

joylashuvini ko'rsatuvchi "Masjid Finder Uzbekistan" nomli mobil ilovasi ishga tushirilishi ham ziyorat turizmi rivojlanishining ijobiy tendentsiyalaridan hisoblanadi. 2020 yilda Buxoro shahrining "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinganligini alohida e'tirof etish joiz<sup>17</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6165-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 20-mayda "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 282-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2022-yildan boshlab har yilning noyabr oyi birinchi haftasida "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi"ni tashkil etish belgilab qo'yildi. Bu haftalik doirasida respublika miqyosida bir qancha xalqaro darajadagi tadbirlar amalga oshirilib, ular orqali mamlakatimizdagi mavjud ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish, O'zbekiston zaminini dunyo tsivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning yuqori e'tiroflariga sazovor bo'lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirish erishish maqsad qilindi<sup>18</sup>.

Yuqorida e'tirof etilgan ijobiy natijalar bilan birga, ziyorat turizmi bilan bog'liq hali ham o'z yechimini topmagan muammolar, bajarish lozim bo'lgan vazifalar talaygina. Xususan, ziyorat turizmi obyektlari bo'yicha ma'lumotlar paketi shakllanmaganligi; turistlarning kelayotgan mamlakati, madaniyati, urf-odatlarini, diniy qadriyatlarini kabilarini e'tiborga olingan holda turistik paketlar tasniflanmaganligi; turistlarga yordamchi bo'ladigan obyektlar xaritalarini tayyorlanmaganligi; ziyorat turizmi infrastrukturasi yetarli darajada shakllanmaganligi va ziyorat turizmini tashkil etishda innovatsion omillardan foydalanish mexanizmi ilmiy asoslanmaganligini ta'kidlash zarur. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tarmoqda tadbirkorlik uchun imkoniyatlar

<sup>17</sup> <https://uzbektourism.uz/cyrl/newnews/view?id=992>

<sup>18</sup> 282-сон 20.05.2022. «Халқаро зиёрат туризми ҳафталиги»ни ташкил этиш ва ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz)

yaratish, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, xususan, davlat byudjeti va boshqa manbalar hisobiga turli fundamental, amaliy va innovatsion grant loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.